

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

XUSANOVA MAKSUDA NISHONOVNA

**O'ZBEK TILIDAGI DIGNITONIM VA FALERONIMLARNING LISONIY
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Xusanova Maksuda Nishonovna

О‘zbek tilidagi dingnitonim va faleronimlarning lisoniy xususiyatlari3

Xusanova Maksuda Nishonovna

Linguistic features dingnitonyms and phaleronymaceae in uzbek
language.....23

Хусанова Максуда Нишоновна

Лингвистические особенности дингнитонимов и фалеронимовых в узбекском
языке.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ.....47

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

XUSANOVA MAKSUDA NISHONOVNA

**O'ZBEK TILIDAGI DIGNITONIM VA FALERONIMLARNING LISONIY
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.I.PhD/Fil4334 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Renessans ta'lim universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasi (www.guldu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Turdibekov Mumin To'rayevich filologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Mamatov Abdug'ofir Eshonqulovich filologiya fanlari doktori, professor Turobov Abduraim Malikovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03 27.02.2020 Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "14" 12 soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (23 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (867) 225-40-42.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "27" 11 kuni tarqatildi.
(2024-yil "27" 11 daqi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R.Mamatqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A.Axrоров
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

F.G.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi (annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda onomastik birliklarning tilshunoslik, tarix, geografiya, etnografiya masalalariga oid xususiyatlari keng tadqiq qilib kelinmoqda. Onomastik birliklar sirasiga kiruvchi dignitonim va faleronimlarni lingvistik aspektda o‘rganishga, leksik birlik sifatidagi nomlash xususiyatlarini tahlil qilishga, onomastik birliklar semantikasini yoritishga, tarixiy, madaniy, uslubiy semalarni tadqiq qilishga, dignitonim va faleronimlarning barcha turlarini yaxlit tizim sifatida sotsiolingvistik, semantik, tarixiy-etimologik jihatdan tadqiq etishga talab ortmoqda.

Dunyo tilshunosligida onomastik birliklarni diaxron va sinxron planda o‘rganishga qaratilgan lingvistik tadqiqotlar ommalashmoqda. Onomastik birlikning nominatsion-motivatsion, grammatik, leksik-semantik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Atoqli ot tiplari tadqiq etilyotgan bo‘lsa-da, tadqiq qilinishi dolzarb bo‘lgan masalalar keng ko‘lam kasb etmoqda. Dignitonim va faleronimlarni sotsiolingvistika, lingvokulturologiya kabi aspektlarda o‘rganish ham o‘ziga xos ijtimoiy-lisoniy sifatida yuzaga chiqmoqda. Dignitonim va faleronimlar tadqiqi natijasida jamiyat a‘zolarining oilada hamda jamoadagi o‘rni, qadr-qimmatining ortishi va jamiyat taraqqiyotidagi ko‘rsatgan xizmatlari uchun taqdirlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda o‘zbek tili onomastik birliklari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar XX asrning 60-yillaridan boshlangan bo‘lsa-da, dignitonim va faleronim nomlarini o‘rganish keng planda, maxsus tadqiqot obyekti sifatida amalga oshirilmagan. Bugungi kunda o‘zbek onomastikasi oldiga atoqli otlar, shu jumladan, dignitonim va faleronimlarni zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida tadqiq etish vazifasi qo‘yilgan. Xususan, dignitonim va faleronimlar semantikasining ekstralingvistik xususiyatlarini lisoniy, tarixiy-etimologik, leksikografik, morfologik, geografik, etnologik, lingvomadaniy yondashuvlar uyg‘unligida o‘rganish shunday vazifalar sirasiga kiradi. O‘zbek tilining istiqbol davri taraqqiyoti dignitonim va faleronim rivojida muhim ahamiyatga ega. Davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan ta’sis qilingan unvon, orden, medallar sotsiolingvistik, lingvokulturologik, psixolingvistik mohiyat kasb etadi. Shu sababli ularning tarixiy xronologik tahlili va tasnifini, nominatsion, leksik-semantik va grammatik xususiyatini tadqiq qilish zarur. Shuningdek, dignitonim va faleronimlarning tarkibiga kiruvchi onomastik leksikaning mahsuli bo‘lgan atoqli ot tiplari ham to‘liq va aniq belgilanmaganligi, ularning monografik tadqiq qilinishi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Zero, “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bo‘lsa, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”¹.

¹ Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. – Toshkent: Tasvir, 2021. – B. 4.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz bir yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PQ-5880-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon va qarorlari, O‘zbekiston fuqarolarini unvon, orden va medallar bilan taqdirlash haqidagi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida onomastika va uning tarmoqlari bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, onomastikaning umumiy masalalari bo‘yicha V.D.Bondaletov, S.G.Veselovskiy, N.V.Podolskaya, V.A.Nikonov, L.P.Kalakuskoy, V.A.Ivashko²; antroponimlar doirasida T.F.Vedina, I.M.Ganjina, Yu.Fedosyuk, A.V.Superanskaya, M.V.Karpenko, A.V.Suslova, T.V.Toporova, N.A.Baskakov, O.I.Fonyakova, L.M.Shetinin³, toponimlar bo‘yicha V.A.Juchkevich, V.A.Nikonov, V.D.Belenkaya, M.V.Gorbanevskiy, S.A.Koporskiy, E.M.Murzayev, A.V.Superanskaya, A.I.Yashenko⁴ kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilgan.

² Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М., 1983. – 224 с.; Веселовский С.Г. Ономастикон Древнерусские имена, прозвища и фамилии. – М.: Наука, 1974. – 382 с.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М., 1988; Никонов В.А. Имя и общество. – М., 1974.; Ономастика и норма / Под ред. Л.П.Калакуской. – М., 1976; Ономастика и грамматика / Под ред. Л.П. Калакуской. – М., 1989; Ивашко В.А. Как выбирают имена. – Минск, 1989.

³ Ведина Т.Ф. Словарь личных имен. – М., 2000; Ганжина И.М. Словарь современных русских фамилий.– М., 2001; Федосюк Ю. Русские фамилии. – М., 1986; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М., 1973; Карпенко М.В. Русская антропонимика. – Одесса, 1970; Имя собственное в художественной литературе // Филологические науки, 1986; Суперанская А.В., Суслова А.В. Современные русские фамилии. – М., 1991; Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М., 1985; Топорова Т.В. Культура в зеркале языка: древнегерманские двучленные имена собственные. – М., 1996; Баскаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения. – М., 1979; Фоныкова О.И. Имя собственное в художественном тексте. – Л., 1990; Щетинин Л.М. Русские имена: Очерки по донской антропонимии. – Ростов-на-Дону, 1978.

⁴ Жучкевич В.А. Общая топонимика. – Минск, 1980; Никонов В.А. Введение в топонимику. – М., 1965; Беленкая В.Д. Топонимы в составе лексической системы языка. – М., 1969; Горбаневский М.В. В мире имен и названий. – М., 1982; Русская городская топонимия. – М., 1996; Копорский С.А. О лексикосемантических особенностях наименований // Мысли о современном русском языке. – М., 1969; Мурзаев Э.М. Очерки

Ma'lumki, o'zbek nomshunosligidagi agnoonim, genonim, poreyonim, faleronim, dignitonim kabi bir qancha onomastik birlik nomlari hozirgacha maxsus to'planib, tadqiq qilinmagan. O'zbek olimlaridan H.Dadaboyev, N.Ahmatov, Z.Xolmanova, A.O'rozboyev olib borgan tadqiqotlarida eski adabiy yodgorliklaridagi ba'zi dignitonimlarga e'tibor qaratgan. A.Mo'minovaning unvon va mansab nomlariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida mavzuning ba'zi jihatlari yoritilgan. Jumladan, mansab va unvon nomlarining semantik strukturasi, undagi ko'p ma'nolilik, sinonimiya hodisalari tekshirilgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, tilshunosligimizning boshqa sohalarida bo'lgani kabi o'zbek nomshunosligida ham dignitonimlarni o'rganishga e'tibor berila boshlandi. Faleronimlar esa, o'zbek nomshunosligida monografik planda tadqiq qilinmagan. Tarix va adabiyotshunoslik fanlari o'zbek tilining nomshunoslik bo'limi bilan bevosita bir-biriga bog'liq. Turli manbalarda, tarixiy, badiiy, avtobiografik asarlardagi dignitonimlar qisman o'rganilgan, u yoki bu darajada tilga olingan, ammo nomshunoslik nuqtai nazaridan ular bo'yicha maxsus tadqiqot ishlari bajarilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Renessans ta'lim universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" nomli mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi dignitonim va faleronimlarning lingvistik aspektidagi tadqiqini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ilmiy, tarixiy va badiiy manbalardan o'zbek dignitonim hamda faleronimlarini to'plash, ularning onomastik ko'lamdagi o'rni, maqomini hamda nomlanish tamoyillarini aniqlash;

dignitonim va faleronimlarning shakllanishi hamda qo'llanishi ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy omillarga bog'liqligi, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini dalillash;

dignitonim va faleronimlarning tarixiy-xronologik, kasbiy xoslanish, ta'sis etilish va tuzilish jihatidan xalqning qadimiy an'analari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hamda urf-odatlarini asosiga ko'ra tasniflash;

dignitonim va faleronimlar lisoniy tarkibiga ko'ra umumturkiy hamda o'zlashma qatlamga oidligini aniqlash, ularning tarkibiy tuzilishi, onomastik-morfologik xususiyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek tilidagi xalq tarixida muayyan tarixiy, madaniy, moddiy va ma'naviy qimmatga ega bo'lgan mingdan ortiq unvon (faxriy, diniy va ilmiy unvon) nomlari–dignitonimlar hamda orden, medal va mukofotlarning maxsus nomlari – faleronimlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi dignitonim va faleronimlarning nominatsion-motivatsion, leksik-semantik, lingvokulturologik, etnolingvistik belgi-xususiyatlarini tashkil qiladi.

топонимики. – М., 1974; Яценко А.И. Лингвистический анализ микропонимов определенного региона. – Вологда, 1977.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda diaxron va sinxron tavsiflash, lug‘aviy-ma’naviy tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil, nominatsion-motivatsion tahlil, etimologik, statistik, lingvistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dignitonim, faleronimlarning yuzaga kelishi va ularning nomlanishi ijtimoiy-ma’naviy hayot hamda jamiyat a’zolarining rag‘bat olishi va mehnat faoliyati samaradorlik darajasining ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bog‘liqligi isbotlangan;

o‘zbek tili leksikasida mansab, unvon, medal, orden, mukofot singari dignitonim va faleronimlarning tarixiy-xronologik, kasbiy xoslanganlik, ta’sis etilish asoslari xalqning qadimiy an’analari, milliy va umuminsoniy qadriyatlari hamda urf-odatlar kabi mental holatlar bilan bog‘liqligi dalillangan;

ilk davrdan bugungi kunga qadar ta’sis etilgan dignitonim va faleronimlar lisoniy tarkibiga ko‘ra umumturkiy hamda o‘zlashma qatlamga oidligi, strukturaviy jihatdan sodda, qo‘shma va birikmali ekanligi va onomastik, semantik xususiyatlariga ko‘ra turkiy va o‘zbek tillari qonuniyatlariga mosligi isbotlangan;

ilmiy, badiiy, avtobiografik, tarixiy, rasmiy va boshqa manbalardagi davlatchilik tartiblarining joriy qilinishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan dignitonim hamda faleronimlar ilk bor to‘planib, ularning onomastik ko‘lamda tutgan o‘rni va maqomi, nominatsion-motivatsion tamoyillari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dignitonim va faleronimlar bo‘yicha to‘plangan materiallar, ularning tadqiqi yuzasidan chiqarilgan natija hamda xulosalar, lisoniy materiallar tahlili o‘zbek tilshunosligi, xususan, o‘zbek onomastikasini ilmiy ma’lumotlar bilan boyitib, nomlarni tahlil qilishda manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqotning materiallari nomshunoslikka oid o‘quv adabiyotlari va izohli lug‘atlar yaratishda, nomshunoslik, leksikologiya, tarix, etnografiya, maxsus kurs va seminar darslarini o‘tishda, shuningdek, kulturologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika fanlari bo‘yicha muhim manba sifatida xizmat qilishi dalillangan;

dignitonim va faleronimlar tadqiqi yuzasidan chiqarilgan natijalar O‘zbekistonda ta’sis etiladigan unvon, orden, medal, mukofot nomlarini yaratishda, ularni targ‘ib qilishda o‘ziga xos asos vazifasini o‘tashi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy jihatidan muammoning aniq qo‘yilganligi, ilmiy-badiiy manbalarga tayanilgani, ishonchli va samarali tasniflash, tarixiy-genetik, qiyosiy-tarixiy hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgani, nazariy natija va xulosalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ilmiy ahamiyati umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosa va natijalar o‘zbek tili onomastikasini dignitonim va faleronimlar haqidagi ilmiy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitib, ishning ilmiy tahlili, xulosalari va tadqiq usullaridan boshqa onomastik birliklarni lingvokulturologik, sotsiolingvistik tadqiq etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati atoqli otlarga oid lugʻatlar tuzishda, “Oʻzbek tili”, “Oʻzbek nomshunosligi”, “Etnografiya”, “Madaniyatshunoslik” kabi darslik va qoʻllanmalar tuzishda, oliy oʻquv yurtlarida oʻzbek tili fanidan dignitonimlar hamda faleronimlar boʻyicha maxsus kurs va seminarlar oʻtishda hamda dignitonim va faleronimlarning izohli lugʻatini yaratishda oʻziga xos manba va material sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbek tilida dignitonim va faleronimlarning lisoniy xususiyatlari yuzasidan erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ilmiy, badiiy, avtobiografik, tarixiy, rasmiy va boshqa manbalardagi davlatchilik tartiblarining joriy qilinishi va taraqqiyoti bilan bogʻliq ravishda yuzaga kelgan dignitonim hamda faleronimlar ilk bor toʻplanib, ularning onomastik koʻlamda tutgan oʻrni va maqomi, nominatsion-motivatsion tamoyillari ochib berilganligiga doir nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030 “Oʻzbek adabiyoti tarixi” koʻp jildlik monografiyasini (7-jild) chop etish nomli fundamental loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 11-iyundagi 04/1-1530-sonli maʼlumotnomasi). Natijada monografiyaning XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid asarlarda qoʻllangan dignitonimlarni guruhlariga ajratishda, xronologik tasnifini berishda, dignitonim va faleronimlarning jamiyat hayotidagi oʻrnini belgilash masalalari kabi yangi maʼlumotlar bilan boyishiga erishilgan;

ilk davrdan bugungi kunga qadar taʼsis etilgan dignitonim va faleronimlar lisoniy tarkibiga koʻra umumturkiy hamda oʻzlashma qatlamga oidligi, srukturaviy jihatdan sodda, qoʻshma va birikmali ekanligi va onomastik, semantik xususiyatlariga koʻra turkiy va oʻzbek tillari qonuniyatlariga mosligi isbotlanganligiga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-20170927147 – “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha boʻlgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” nomli ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-iyundagi 04/1-1479- sonli maʼlumotnomasi). Natijada tarixiy dignitonim va faleronimlarning qoʻllanilishi, turkiy yozma manbalarda uchraydigan namunalarini tahlil qilish jarayonida ularning qoʻllanish davri, anglatgan maʼnolari boʻyicha chiqarilgan xulosalardan loyiha mavzusiga oid nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga, dignitonim va faleronimlarning taʼsis etilishi, semantikasini toʻlaqonli tavsiflash, izohlashga erishilgan;

dignitonim, faleronimlarning yuzaga kelishi va ularning nomlanishi ijtimoiy-maʼnaviy hayot hamda jamiyat aʼzolarining ragʻbat olishi va mehnat faoliyati samaradorlik darajasining ortishiga ijobiy taʼsir koʻrsatuvchi maʼnaviy-maʼrifiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bogʻliqligiga oid ilmiy natijalaridan Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi, “Maʼrifat” targʻibotchilar jamiyati, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Oʻzbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan olib borilgan “Oʻzbekiston Qahramonlari” mavzularidagi fundamental

va amaliy ilmiy loyihalarda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatining 2024-yil 23-apreldagi 01/14-25-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha O'zbekiston Qahramonlarining avtobiografiyasidagi dignitonim hamda faleronimlarni matnlarda qo'llash, dignitonim va faleronimlarning shakllanishida shaxs omilining o'rni haqidagi ma'lumotlar bilan amaliy boyitilgan;

o'zbek tili leksikasida mansab, unvon, medal, orden, mukofot singari dignitonim va faleronimlarning tarixiy-xronologik, kasbiy xoslanganlik, ta'sis etilish asoslari xalqning qadimiy an'analari, milliy va umuminsoniy qadriyatlari hamda urf-odatlar kabi mental holatlar bilan bog'liqligi asosida chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanalida e'fira uzatilgan "Uchinchi renessans" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2024-yilning 24-apreldagi 06-28-551-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur teleko'rsatuv uchun tayyorlangan materiallar yoshlarning madaniyati va ma'naviy olamini boyitishga, dunyoqarashini kengayishiga zamin yaratuvchi ilmiy-faktik jihatlari bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan 5 ta respublika hamda 3 ta xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 15 ta, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Hajmi 133 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari ifodalangan, tadqiqot obyekti ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Dignitonim va faleronimlarning onomastik ko'lami hamda nomlanish xususiyati**" deb nomlanib, atoqli otlarning onomastik ko'lami va lisoniy maqomi tahlil etilgan. Ma'lumki, onomastik birliklar tildagi atoqli ot turlarining to'plami bo'lib, ularni keng va tor ma'nosi mavjud. Onomastik ko'lamlar superko'lami, makroko'lami, mikroko'lami va yana kichikroq ko'lamlarga bo'lib o'rganiladi. Onomastik ko'lamni tashkil etuvchi makroko'lamlarga

antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, kosmonimlar, gidronimlar, mifonim, poreyonim, ideonimlar kiradi. Antroponim, toponim, gidronim va ideonimlar tarkibini atoqli otlarga boy bo'lgan mikroko'lamlar tashkil qiladi. Bu makroko'lamlar bo'yicha olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. O'zbek onomastikasining superko'lamiga kiruvchi 22 ta makroko'lamdan biri⁵ni ideonimlar tashkil qiladi. Ideonimlar (yun. Idea – g'oya+onoma – atoqli ot) – tarixiy asarlar, hujjatlarning atoqli oti. Insonning aqliy, g'oyaviy va badiiy faoliyatining mahsuli bo'lgan tarixiy, badiiy asarlar, hujjat, unvon, orden, medallarning atoqli nomlari ideonim deb ataladi. Ideonimlarni tasnif etganda, uning mikroko'lam turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Ktematonim – xalq tarixi, milliy madaniyati uchun ma'lum qimmatga ega bo'lgan ba'zi nodir qurollar, asbob-uskunalar, buyumlarning bir donasiga berilgan atoqli ot.

Geortonim – har qanday bayram, festival, xotira kunlari, marosim va tadbirlarga berilgan atoqli ot. Navro'z bayrami, Ramazon hayiti (Iyd-al Fitr).

Xrononim – tarixiy davrlar, bosqichlarning atoqli oti. Masalan, Temuriylar davri, Oila yili.

Dokumentonim – xalq tarixi uchun alohida ahamiyatga ega hujjatlar nomi. Mustaqillik deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Gameronim – matbuot organlari (gazeta, jurnal, byulleten, axborot va b.) “Xalq so'zi”, “Yangi O'zbekiston” (gazeta), “Saodat”, “Moliya” (jurnal).

Artionim – tasviriy san'at asarlari (rang-tasvir, grafika, plastika va b.) tasviriy san'at asarlari (rang-tasvir, grafika, plastika va b.). “Mona Liza” (Leonardo da Vinchi).

Biblionim – har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarlarga qo'yilgan atoqli ot. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni, Abdulla Qahhorning “O'tmishdan ertaklar” asari.

Musiqa san'at asarlari (kuy, ashula, qo'shiq va b.) atoqli oti. Masalan, “Munojot”, “Ushshoq” (xalq kuyi).

Dignitonim – faxriy unvonlar, mansablarning atoqli oti. Masalan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston Qahramoni.

Faleronim – har qanday orden, medal, ko'krak nishonlarining atoqli oti. “Do'stlik” ordeni, “Shuhrat” medali.

Ilmiy manbalarda tilga olinsa-da, maxsus o'rganilmagan hamda yetarlicha tadqiq etilmagan atoqli ot turlaridan biri dignitonimlardir. “Dignitonim” lotin tilidagi “dignitas” so'zidan olingan bo'lib, “qadr-qimmat, xizmat yoki taqdirlashga loyiq ish” kabi ma'nolarni anglatadi. “Dignitonim” fransuz tilida “dignite” deb atalib, “unvon”, “mansab” ma'nosini bildiradi⁶.

Dignitonimga insonlarning jamiyatdagi faoliyatida erishgan yutuqli, muvaffaqiyatli ishlariga ma'naviy, ma'rifiy va ruhiy jihatidan rag'batlantirish

⁵ Бегматов Э. А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 42 б.

⁶ Французско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1977. – С. 140.

uchun davlat yoki tashkilot tomonidan ta'xis etilgan unvon (faxriy, diniy va ilmiy unvonlar) va mansablar kiradi.

Faleronim (lot. eng jasur legionerlarga berilgan nishon – atoqli ot) har qanday buyruq, medal, nishon belgisi bo'lgan atoqli ot⁷. Dignitonim va faleronim terminlari haqida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ma’lumot uchramaydi.

Fuqoralarning mehnat faoliyati davomida alohida o‘rnak bo‘ladigan ishlari uchun ma’naviy, ma’rifiy va ruhiy jihatidan taqdirlash uchun davlat yoki tashkilot tomonidan ta'xis etilgan orden, medal, mukofotlarning nomi faleronimlar deb ataladi.

Dignitonimika nomshunoslikning unvon, mansab-martaba nomlarini o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lsa, faleronimika orden, medal, mukofotlar nomlarini o‘rganuvchi alohida bo‘limi hisoblanadi.

Jamiyatning rivojlanishi uchun ishlab chiqarishni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, axborot texnologiyalarini barcha sohalarga joriy qilish, shuningdek, iqtisodiyot, ta'lim-tarbiya, ichki va tashqi siyosatda yangi innovatsion yangiliklarni amalda qo‘llash lozim. Shu sababli insonlarning faoliyatini rag‘batlantirishga, muvaffaqiyatlarga erishganlarni taqdirlashga ehtiyoj tug‘iladi. Unvon, orden, medal, ko‘krak nishoni majmuini o‘zida jamlagan dignitonim va faleronim kabilarni nomlashga zarurat paydo bo‘ladi.

Dignitonim va faleronimlarning ma’lum maqsadlarda shakllanishi va yaratilishi bilan maqsadlarga muvofiq bo‘lgan estetik hamda mantiqiylik(logik)ka xos ma’naviy komponentlar ham⁸ onomoleksikon (onomastik leksika)da o‘z ifodasini topadi⁹. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, so‘zlar (o‘zi ifodalayotgan narsa va hodisalarning nomi) ham til birliklariga xos nomlanishda¹⁰, ham onomastik birlik (ya’ni atoqli ot)larga xos nomlanishlarda faol qo‘llanadi. Demak, voqea hodisalarni nomlashga bo‘lgan ehtiyoj tufayli so‘z yuzaga kelgan bo‘lsa, fuqarolarni taqdirlash uchun dignitonim va faleronim nomlariga zarurat paydo bo‘lgan.

Ma’lumki, unvon, orden, medallar o‘zining rivojlanish davriga ega. O‘zbek tilida mansab-unvon nomlari tadqiq etilib, diaxron aspektida yoritilgan, ammo unvon nomlari alohida tadqiq etilmagan. Qadimda mansab-unvonlar bir xil qiymatga ega bo‘lib, ularning shakllanishi tengsizlik va tabaqalanish davrida yuzaga kelgan. Mahmud Koshg‘ariy¹¹, I.Berezin¹², B.Grekov¹³, L.Budagov¹⁴

⁷ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М: Наука, 1988. –192 с.

⁸ Языковая номинации (общая вопросы) / Соотношение эстетического и логического компонентов и лексической номинации. – М.: Наука, 1967. – С. 207-228.

⁹ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – 188 с.; Подольская Н.В. Проблемы ономастического слово образования // Вопросы языкознания. – Москва, 1990. – № 3. – С. 40-53.

¹⁰ Языковая номинации (общие вопросы) – М.: Наука, 1967. – С. 3-358.

¹¹ Кашгарий М. Девону лугатит турк . –Т.: Фан, 1963. –Б. 172

¹² Березин И.Н. Ханские ярлыки. II Тарханские ярлыки Тохтамыш, Тимур Кутлука и Саадет Гирея. – Казан, 1851. – С.72.

¹³ Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орде и ей падение. – М. –Л., Акад.наук., 1950. – 479 с.

¹⁴ Будагов Л.З. Сравнительный словарь тюрского-татарских наречей. – СПб.,Т. I.1869. – 810 с.; Т.II.1871. – 415с.

V.Bartold¹⁵, A.Semyonov¹⁶ asarlarida unvon-mansablarning shakllanish va taraqqiyot omillari yoritilgan. Xiva xonligidagi davlat boshqaruv tizimiga oid mansab va unvon nomlari M.Y.Yo‘ldoshevning ishida o‘rganildi, ularning vazifalari izohlandi¹⁷, shuningdek, Xiva xonligidagi mansab va unvon nomlarining tadqiqotchilaridan yana biri N.A.Baskakov tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, bunda olim unvon nomlarini olti guruhga ajratadi¹⁸. H.Dadaboyev, N.Ahmatov, Z.Xolmanova, A.O‘rozboyev kabi o‘zbek olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarida eski o‘zbek tilida qo‘llangan mansab va unvon nomlari qisman o‘rganilgan. Xususan, H.Dadaboyev quyidagicha tasniflaydi: 1. Davlat apparati unvonlari nomlari: a) saroy xizmatidagi unvon nomlari; b) ma‘muriy boshqaruv xodimlarining unvon nomlari; v) viloyat va shahar boshqaruvida mas‘ul shaxs unvon nomlari. 2. Diniy unvon nomlari¹⁹.

Ijtimoiy-siyosiy tushunchani ifodalovchi mansab-martabani bildiruvchi leksemalarni Z.Xolmanova kichik 6 guruhga ajratadi²⁰. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarning leksik-semantik tarkibi mavzusida A.Mo‘minova tadqiqot olib borib, unvon nomlarini ma‘nosiga ko‘ra uch guruhga, oliy unvonlar, faxriy unvonlar, maxsus unvonlarga bo‘ladi²¹. O‘zbek nomshunos olimi E.Begmatov ta‘kidlaganidek, onomastik birliklarning ba‘zi tiplari atoqli ot sifatida ma‘lum bo‘lsa-da, ular deyarli tahlil qilinmagan: gemeronim, geortonim, dignitonim, ideonim, faleronim, agionim, anemonim²² kabilar hisoblanadi, ammo ularning nomi esa onomastik mikroko‘lamlar safiga kiradi.

Faleronim har qanday buyruq, medal, nishon belgisining atoqli otidir. Eng dovyurak, jasur kishilarning bajargan ishlari uchun rag‘batlantirish maqsadida berilgan medal, nishon belgisi faleronim deb nomlanadi. Bizningcha, kishilarning jamiyatdagi yutuqlari, muvaffaqiyatlari, yaratgan ixtirolariga moddiy va ma‘naviy jihatdan rag‘batlantirilishi uchun berilgan unvon nomlarini dignitonimlar, medal, orden va mukofot nomlarini faleronimlar deb atasak, maqsadga muvofiq bo‘lardir.

Zero, dignitonim va faleronimlarni sinxron hamda diaxron jihatidan o‘rganilishi, o‘zbek tilining taraqqiyotini, boyligini asoslaydi. Tarixiy va zamonaviy mazmundagi unvon, orden, medal hamda mukofotlarning nomlarida milliy va umuminsoniy an‘analari, udumlar, urf-odatlar o‘z ifodasini topgan. Ayni vaqtgacha dignitonim va faleronimlar o‘zbek nomshunosligida yetarli darajada o‘rganilmagani tufayli ular tarkibiga kiruvchi atoqli ot tiplari ham to‘liq va aniq belgilangan emas.

¹⁵ Бартольд В.В. Церемониал при дворе узбекских ханов// Сочинения. Т.П.ч.П. – М.: Наука, 1964. – 657 с.

¹⁶ Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре.– М. – Л.,1948. – Т.5. – С.134-153;

¹⁷ Йўлдашев М.Я. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат бoшқаруви. – Тошкент: Ўз ФАН, 1957.

¹⁸ Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология.1989. - №1. – С. 63-71.

¹⁹ Дадабаев Х.А. Общественно-политических и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – С. 43.

²⁰ Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 176.

²¹ Мўминова А.К. Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таҳлили: Филол.фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б.155.

²² Бегматов Э.А. Ўзбек тили антронимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 37 б.

Dignitonim va faleronimlarga nom berishda ularning o'ziga xos belgi-xususiyatlari bu bobda tahlil qilingan. Ma'lumki, motiv deganda obyektning nomlash uchun nomlovchilar tomonidan tanlangan asos, belgi tushuniladi. Dignitonim va faleronimlarni nomlanish vaqtida nomlanuvchining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Nomlovchi nomlanayotgan obyektning belgilaridan birini yoki u to'g'risidagi tasavvur, orzu, istaklaridan birini tanlaydi. Shuningdek, unvon, orden, medal va ko'krak nishonining belgi-xususiyatlarini biror tamoyilga asoslagan holda tanlash orqali yuzaga keladi. Dignitonim va faleronimlarning ba'zilar konversiya usulida – turdosh otdan atoqli otni, boshqalari esa transonimizatsiya yo'li bilan – atoqli otdan boshqa turdagi atoqli otni hosil qiladi. Dignitonim va faleronimlarning nomlanish tamoyili pozitivlik (lotincha positivus-ijobiy) tamoyiliga asoslanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Dignitonim va faleronimlarning tarixiy aspekti hamda ijtimoiy asoslarga ko'ra turlari”** deb nomlangan. Bu bobda dignitonim va faleronimlarni uch guruhga, ya'ni tarixiy-xronologik, kasbiy xoslanganlik va ta'sis etilish asosiga ko'ra ajratilib tasnif hamda tahlil qilingan.

Dignitonim va faleronimlarning yaratilishi shu kunning emas, balki qadim tarixning o'ziga xos mahsuli bo'lib, ularning yuzaga kelishi o'ziga xos bir necha omillarga bog'liq. Dignitonim va faleronimlarning yuzaga kelishida tarixiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy omillar muhim o'rin tutadi. Dignitonim va faleronimlarning xronologik tasnifiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin: 1. Ilk davrdan XX asrgacha yaratilgan dignitonim va faleronimlar; 2. XX asrdan mustaqillikkacha bo'lgan dignitonim va faleronimlar; 3. Istiqloldan hozirgi kungacha bo'lgan dignitonim va faleronimlar.

Mutaxassislik darajasi rasman e'tirof etiladigan, vakolatli organlar tomonidan belgilanadigan va beriladigan nom, meros bo'lib keladigan yoki ish-vazifa darajasini ko'rsatuvchi hamda in'om qilingan hurmatli, faxriy nomlilikni ifodalovchi so'z²³ unvonning ma'nosini anglatadi. “Unvon” so'zi rus tilida “zvaniye, titul” ma'nolarini anglatadi. Biroq, bu sinonimlar bir tushunchani aniq ifodalay olmaydi. “Titul” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “titulus – faxriy unvon, sharaflilik nom”²⁴ degan ma'nolarni bildirib, o'zbek tilida unvon tushunchasini ifodalaydi. Qadimda unvon bilan hukmdorlar alohida xizmat ko'rsatgan kishilarni taqdirlangan va u meros bo'lib o'tgan, sinxron aspektda unvon davlat tomonidan fuqarolarga alohida ko'rsatgan xizmatlari uchun beriladi, biroq meros bo'lib o'tmaydi.

O'rxun-Enasoy obidalarida unvon leksemasi at so'zi orqali ifodalangan. Xususan, Kul Tegin bitiktoshida at so'zi unvon ma'nosida ishlatilganini ko'rish mumkin. Bars bek edi, xoqon deb biz bunda at (unvon, ot) berdik²⁵. Yuqorida tilga olingan at so'zi Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asarida “ot, ism;

²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 4-ж, 2008. –Б. 288.


²⁴ Дворецкий И.Х. Латинско- русский словарь. – М.: Рус. яз., 1976. – С.1016.

²⁵ Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li. O'rxun-Yenisey bitigtoshidagi harbiy terminlar tadqiqi: Filol.fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. ... avtoref. – Toshkent, 2023. – B.17.

laqab, unvon”²⁶ ma’nolarida qo‘llangan: “Bag anar at bardī”, ya’ni “Beg unga unvon berdi”. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida esa ism, nom, unvon ma’nolarida ishlatilgan: “Ota ornī ati yolqa qolip – Ota o‘rni va unvoni o‘g‘ilga qoladi”²⁷.

Shayx ul-islom (arab. islom dini shayxi; diniy qonunlarni sharhlovchi shayx;) – islom dini peshvolarining boshlig‘i, oliy diniy unvon²⁸. X asrdan boshlab faqih va so‘fiylarga diniy unvon sifatida berilgan. XIII asr keyin Islom mamlakatlarida, xususan, Turkiyada, Buxoro amirligida eng oliy unvon sifatida ishlatilgan. Hozirgi kunda ba’zi islom davlatlarida shialikka mansub diniy boshqarma rahbarini “Shayx ul - islom”, sunniylikka mansub diniy boshqarma rahbarini “mufti” deb atashadi. “Shayx ul - islom deb turki yer-u ko‘k ahlida har kimdin rasta bo‘lgaysen sud qilg‘aysen” (ANATIL,345).

Dissertatsiyada dignitonimlar quyidagi besh guruhga bo‘lib tadqiq etildi.



1-rasm. Unvonlarning turlari

Istiqlol yillarida juda ko‘plab unvonlar ta’sis etildi. Dignitonimlar yoshlarda vatanga muhabbat uyg‘otib, vatan xavfsizligini asrashiga, yangi ixtirolar qilib, yurtni dunyoga tanitishiga, turli jabhalarda fidoyilik bilan faoliyat ko‘rsatishlariga zamin yaratmoqda. Alohida jonbozlik ko‘rsatganlarga davlat tomonidan unvonlar ta’sis etilib, taqdirlanib kelinmoqda. Dignitonim va faleronimlarning ba’zilari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, O‘zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlangan shaxslarga “Oltin Yulduz” medali ham beriladi.

Faxriy unvonlar o‘z sohasida yoki mutaxassisligida ixtiro va kashfiyotlar yaratgan yoki yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan shaxslarga beriladi. O‘zbekiston


²⁶ Муталлибов С. “Девону луғотит турк”нинг ўзбек тилига муносабати масаласи // Махмуд Кошгарий. Девону луғотит турк. III томлик. – Тошкент: Фан, 1960. – I том. – Б. 107.

²⁷ Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li. O‘rxun-Yenisey bitigtoshidagi harbiy terminlar tadqiqi: Filol.fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Phd) diss. ... avtoref. – Toshkent, 2023. – B.17.

²⁸ Ислom энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 563.

Respublikasining “Davlat mukofoti to‘g‘risida”gi Qonunining II bob 4-moddasida 37 ta faxriy unvonlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan²⁹. Faxriy unvonlar davlat tomonidan ta’ sis etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari quyidagilardan iborat:



2-rasm. Faxriy unvonlarni turlari

Ilmiy unvonlar. Ma’lumki, eski o‘zbek tilida *a‘lam*, *oxun* kabi ilmiy unvonlar diniy tizimda faol qo‘llangan. Davr o‘zgarishi natijasida boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar fan va ta’lim tizimiga ham kirib kelgan. Ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullangan, yutuqlarga erishgan, ilmiy darajaga ega bo‘lgan olimlarga katta ilmiy xodim, dotsent, professor, akademik singari unvonlar beriladi. Professor unvoni oliy o‘quv yurtida faoliyat olib borgan, ilmiy darajali, bir necha o‘quv qo‘llanma va darsliklar muallifi bo‘lgan olimlarga beriladi. Ilmiy unvonlar davlat tomonidan quyidagi ikki yo‘nalishda faoliyat yuritayotganlarga beriladi:

Oliy o‘quv yurtlarida ishlab, ilmiy ishlar bilan shug‘ullanayotgan, ilmiy darajaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilarga dotsent, professor, akademik singari unvonlar beriladi.

Katta ilmiy xodim unvoni ilmiy tekshirish institutlarining ilmiy darajali xodimlariga beriladi.


O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi³⁰ tomonidan akademik unvoni ilmiy muassasa yoki oliy o‘quv yurtida faoliyat yuritgan, o‘z sohasida jiddiy tadqiqotlar va maktab yaratgan olimlarga beriladi.

²⁹ “Ўзбекистон Республикасининг фахрий унвонларини таъсис этиш тўғрисида”ги Қонуни Ўзбекистон Республикаси 1996-йил 26-апрелдаги 227-І-сонли Қонуни www.Lex.uz

³⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006.1-ж. –Б. 61.

Dissertatsiyada hukmdorlar, harbiy xizmatchilar, ijodkorlar va diniy xodimlarga beriladigan dignitonimlar keng tahlil qilingan.

Faleronimlar ma'no jihatdan to'rt turga bo'linadi:



3-rasm. Faleronimlarning turlari

Orden (lot. orda-qator, daraja) faleronimi “metall nishon”, “taqdirlash belgisi”, “ritsarliklarning harbiy-monaxlik tashkiloti” ma’nolarini ifodalaydi. Ordenning yuzaga kelishi ritsarlik tarixi bilan bog‘liq. Yevropa mamlakatlarida ritsarlar bo‘yinlariga qimmatbaho metalldan yasalgan krest taqib, ritsarlik tashkiloti (orden)ga tegishli ekanini bildirgan. Turkiya, Eron va Arab mamlakatlarida esa yuqori darajada xizmat ko‘rsatgan odamlarni yarim oy shakldagi nishonlar bilan podshohlar taqdirlashgan. Inson borki, qilgan kashfiyotlari, mehnatlarini, ixtirolarini omma oldida rag‘batlantirishini istaydi. Har bir zamoni, davrni o‘z faleronimlari mavjud. Davr o‘zgarishi bilan ba’zilari eskirib, yangi faleronimlar paydo bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mukofotlari to‘g‘risida” qonunning sakkizinchi moddasi O‘zbekiston Respublikasining ordenlari to‘g‘risida³¹ bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: “Mustaqillik” ordeni; “Amir Temur” ordeni; “Jaloliddin Manguberdi” ordeni; “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni; “El-yurt hurmati” ordeni; “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni; “Mehnat shuhrati” ordeni; “Faxriy murabbiy” ordeni; I va II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni; I va II darajali “Shon-sharaf” ordeni; “Do‘stlik” ordeni; I va II darajali “Salomatlik” ordeni; “Mardlik” ordeni, “Imom Buxoriy” ordeni.

“Amir Temur” ordeni. Bu faleronim tarkibidagi “amir” so‘zi arabcha bo‘lib, “hokim, hukmron, yo‘lboshchi”³² degan ma’nolarni anglatadi. “Temur” so‘zi “mustahkam, mahkam, qattiq”³³ ma’nolarini anglatadi. Qadimiy turkiy yodgorliklarda temir “metall” ma’nosida qo‘llangan. Bunda atoqli ot tildagi mavjud turdosh so‘zlardan, ya’ni apellyativ leksikadan yasalgan. “Temur” so‘zi mo‘g‘ul tilida XI asrda, turkiy yodgorliklarda esa XIV asrdan ism sifatida qo‘llangan.


³¹“Ўзбекистон Республикасининг фахрий унвонларини таъсис этиш тўғрисида”ги Қонуни Ўзбекистон Республикаси 1996-йил 26-апрелдаги 227-І-сонли Қонуни www.Lex.uz

³² Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари имлоси. –Тошкент: Фан, 2007. – Б. 30 .

³³Хусанов Н.А. Ўзбек антропонимлари. – Тошкент, 2014. – Б. 78.

“Medal” lotincha “myetallia” – “metall tanga” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, kishilarning samarali xizmatlari uchun beriladigan, toʻgarak yoki romb shaklda yasalgan, tasvir va yozuvi boʻlgan nishondir.

Faleronimlar ichida kishilarga medallar koʻproq beriladi, chunki ular ordenlarga nisbatan quyiroq bosqichda turadi. Ular quyidagilar: “Jasorat” medali; “Sodiq xizmatlari uchun” medali; “Kelajak bunyodkori” medali; “Shuhrat” medali; “Sogʻlom turmush” medali.



4-rasm. Medallarning taʼsis etilgan yillari statistikasi

